
SIYOSIY MAFKURALARNING ASPEKTIV REGULYATORDA GENDER MUAMMOSI

Xoliqulov Muhammad¹

¹ O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Rustamova Odina¹

¹ O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabasi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.05.2025

Revised: 18.05.2025

Accepted: 19.05.2025

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada gender tengligining siyosiy mafkuralardagi o'rni va uning jamiyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Gender muammosiga oid xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari, shuningdek, bu boradagi turli mafkuralarning ijobiy va salbiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Sharq va G'arb mamlakatlarining gender tengligiga yondashuvi qiyosiy tahlil qilingan holda, O'zbekiston kontekstida ushbu masalaning huquqiy asoslari ham yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Gender tengligi, siyosiy mafkura, gender muammosi, huquqiy asoslar, demokratik jamiyat, ayollar huquqlari, ijtimoiy tenglik, gender regulyator, xalqaro tashkilotlar, zo'ravonlikka qarshi kurash.

KIRISH. Bugungi demokratlashayotgan jahoning siyosiy xaritasiga nazar solganda, dunyoning siyosiy manzarasida turli tuman qarashlarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, demokratiyaning bir-necha o'n xil turi mavjudir. Abu Nasr Forobiy ta'biri bilan aytganda: "Demokratiya bu fozil odamlar jamiyatini qurish yo'lidagi bir vositaviy yo'ldir" [1:160] ya'ni demokratiya jamiyatning ideal ko'rinishini vujudga keltirish uchun amal qiladigan bosqichlardan biri bo'lib xizmat qilishini anglashimiz mumkin.

Bugungi kunda globallashuv davrida jahon siyosiy sahnida ro'y berayotgan o'zgarishlar tadqiqi bilan shug'ullanish butun geofazoviy yer kurasining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan gigant iqtisodiy, harbiy qudratgaega bo'lgan Fransiya, Ispaniya, AQSh, Germaniya, Malaysia, Xitoy, Yaponiya, Finlandiya va Rossiya singari davlatlarda gender muammosi bilan shug'ullanuvchi siyosiy institutlar o'zlarining tadqiqot ishlarini amalga oshirishmoqda.

Xususan, BMT, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasi neizida shakllangan UNICEF, BMT Ayollar maqomi bo'yicha komissiyasi (CSW) gender tengligiga amal qilishga asoslangan paritetini har bir tashkilotning kamida 50 foizini bitta jins vakillari tashkil etishi bilan baholaydi[7]. Xotin-qizlarning siyosiy vakillik masalalari, ya'ni teng vakillikdan foydalanish tamoyili ham ayni xuddi shu tushunchani o'zida mujassam etgan[2]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi barcha a'zo mamlakatlardan "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya qilishni" rag'batlantirishga va'da berishlarini va bunga sodiq qolishlarini talab qiladi[9:55-56]. Shuningdek, yurtimizda yuqoridagi barcha xalqaro shartnomalarning ratifikatsiya qilinganligi hamda ularga amal qilishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilganligi bilan harakterlanadi.

Mamlakatimizda, gender muammosi bir qancha huquqiy qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"[10]gi 562 sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yildagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"[11]gi 297-IV-sonli qarori bilan muhofazaga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gender tenglik tog'risida nutun dunyo olimlarining ko'plab ilmiy izlanishlar olib brogan bo'lib, g'arb olimlaridan: gender munosabatlari haqidagi ilk qarashlarni ilg'or feministlar Fred Xollidey, Jan Betke Elshtayn, Kerolen Kon, Robert V. Konnell va Jeyms V. Messershmidt, R.Xof, Vanda Lyutsiya Zemyuner, Lenora Veytsman, M. Kimmel, Sofya Babayan, Andjela Vullakott, Sintiya Xolden Enlo kabi olima ayollarning ilmiy tadqiqot ishlari asosida Margarit Mid, Simona de Bouar, Meri Uolstonkraft bildirishgan. Yurtimiz olimlarida bir qancha ilmiy tadqiqotchilar gender muammosi tog'risida ilmiy izlanishlar olib brogan. Xususan, Radjapova Natalya Bazarovna "Yangi O'zbekistonda demokratik o'zgarishlar davridagi gender tenglik: nazariya va amaliyot"[6] mavzusidagi dissertatsiyasida jamiyatdagi gender tenglik hamda uning amaliyotini yoritgan.

Urazalieva Gulshada Bekpo'latovna esa, "Oila institutini mustahkamlashda gender tengligikning etnofunksional jihatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)[8] mavzusida dissertatsiyasida oiladagi gender munosabatlarni huquqiy va ijtimoiy mezonlar asosida tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) Gender tenglik o'zi nima?, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?, jamiyatga uning tasiri qanday? Degan savollar tug'ilishi tabiiy.

“Gender tengligi, shuningdek, jinsiy tenglik yoki jinslarning tengligi sifatida ham tanilgan, jinsidan qat’i nazar, resurslar va imkoniyatlardan, shu jumladan iqtisodiy ishtirok etish va qarorlar qabul qilishda teng darajada qulay foydalanish holati, shuningdek, jinsidan qat’i nazar, turli xil xatti-harakatlar, intilishlar va ehtiyojlarni teng baholash holati”[4] ga nisbata gender tenglik atamasi orqali o‘z ifodasini topadi. Biroq, bu jumlanı batafsil tahlil etadigan bo‘lsak, jinsnинг erkinligi degan ma’noni anglatadi. Bugungi kunda jinsiy tafovutlar soni erkak va ayol jinsi bilan belgilanmasdan qolganini inobatga oladigan bo‘lsak, albatta statistic ma’lumotlarga murojaat qilmaslik mumkin emas. 2024-yil “Healthline statistika ma’lumotlariga ko‘ra gender jinslarining 68 ta turi aniqlangan”[15] bo‘lib, ularning tasniflar bir necha faktorlarga ko‘ra aniqlanadi. Bunda oiladagi, jamiyatdagi va shaxsiyatida vujudga kelgan o‘zgarishlarga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bu holat bir qarashda tushunarsizdek ko‘rinishi mumkin, lekin bu tabiy tanlanish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblik sababli vujudga kelgan deb ham aytaolmaymiz. Chunki, gender tenglik masalasi dunyo mamlakatlari orasida juda bahsli mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Boisi, asosan sharq mamlakatlari milliy mentalitetiga bunday teng huquqlilik yod unsur bo‘lganligi uchun buni qabul qilish mumkin emas. G‘arb davlatlarida gender tengligi qonunan e’tirof etilgandir, sharq mamlakatlari xususan, O‘zbekistonda erkak va ayolning har tomonlama teng huquqligiga gender tenglik deb e’tirof etiladi.


Gender tenglik g‘oyalarining ilk shaklanish evolutsiyasi bundan ancha ilgari antik davr yunon faylasuflari tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, Aristotel gender tengligi masalasida zamonaviy tushunchalardan ancha farqli fikrlar bildirgan. U o‘zining “Siyosat” asarida ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tabiiy farqlarni ta’kidlab, erkaklarni hukmron, ayollarni esa bo‘ysunuvchi deb hisoblagan. Quyida uning gender masalasiga oid ba’zi fikrlari (iqtiboslari) keltirilgan: “Ayol tabiatan erkakka nisbatan pastroq, shuning uchun u itoatda bo‘lishi kerak”[12:376-644] ya’ni uning jismoniy tomonlama izohlagan holda nisbat bergen. Shuningdek,

Aflatun gender tengligi borasida Aristoteldan ancha ilg‘or fikrlarga ega bo‘lgan. U o‘zining “Davlat” asarlarida erkak va ayollar tabiatan o‘xshash imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlagan va ayollar ham jamiyatning faol a’zosi bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Xususan, “Agar erkaklar va ayollar bir xil qobiliyatlarga ega bo‘lsa, unda jamiyatdagi lavozim va kasblarni ham ular o‘zaro teng taqsimlashi kerak”[13:512] degan g‘oyani ilgari suradi. Plutarx esa, gender tengligi haqida bevosita zamonaviy tushunchalarda fikr bildirmagan bo‘lsa-da, u o‘zining “Parallel biografiyalar” va “Axloqiy asarlar” (Moralia) kabi yozuvlarida ayollarning roliga oid ilg‘or fikrlarni ilgari surgan. Misol uchun “Kelin-kuyovlarga nasixatlar”ida “Ayollarning faqatgina oilaviy hayot bilan cheklanmasligi, balki ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlanishi kerak”[14:240] ligini ta’kidlaydi. Shuningdek, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinolar bu borada bir qancha ma’lumotlar qoldirgan.

Gender tenglik borasida bugungi kunda, globallashuv sharoitida uni siyosiy mafkura darajasiga olib chiqib butun bir jamiyatlarni ta'nazulga uchratishga urunuvchi yoinki ayrim uchinchi dunyo davlatlaridagi ayollar va bolalar huquqini ko'tarishga urinuchi ezgu g'oya-mafkuralarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasibir tarafdan yomondek ko'rinadi boisi, ayollar va erkaklarning jinsiy tengligini ta'minlashni o'rniga buzg'unchi va bizning milliyligimizga yod bo'lgan siyosiy mafkuralarning kirib kelishi bu biz, jamiyatimiz va davlatimizning huquqiy, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va eng avvalo ma'naviy hayotimizni parokanda qilishga qaratilgan propagandaning o'zginasidir. Misol tariqasida: Feminizm, Erkaklik kuchi, LGBT va boshqa shunga o'xshash bir qancha buzg'unchi mafkuralar mavjud. Boisi, bularning barchasi jamiyatda tenglikni targ'ib qilish orqali insonlar orasiga nifoq solish, jamiyatni axloqiy tannazulga yuz tutishiga harakat qilishdan iboratdir.

Ijobiy tomonlari ham bor bo'lib unga, uchunchi dunyo mamlakatlari hamda diniy yo'naltirilgan jamiyatlardagi ayrim bir davatlarda ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgandir. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik ishlatilishi holatlarini tanqid qilish ushbu davatlarga sanksiya kiritish va boshqa faktorlar orqali ta'zyiq o'tkazish yo'li bilan ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan jahon hamjamiyatining roli orqali ta'sir o'tkazilmoqda. Misol tariqasida: Womanstats loyihasi statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2019 yil Ayollarga nisbatan sodir etilgan qotilliklar 100 000 aholiga to'g'ri keladigan dunyo xaritasi 1-ilova[16].

Rate of Murder of Women, All Ages
Scaled 2019



Yashil rangdagi davlatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari deyarli yo'qligini bildirsa, sariq rangda 100mingta ayolga nisbatan zo'ravonlik holatlari 1.30 dan 2.99 tani tashkil etishi ko'rsatilgan. Qizil rangda bu ko'rsatkich 3mingta va undan ko'pni tashkil etgan.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning turlarini Yevropa Kengashi Gender tenglik komissiyasi ayollarga nisbatan zo'ravonlikning to'qqizta shaklini hayot tsikli yoki vaqt davriga emas, balki mavzu va kontekstga qarab belgilaydi:

1. Oila ichidagi zo'ravonlik yoki oilaviy zo'ravonlik;
2. Zo'rlash va jinsiy zo'ravonlik;
3. Jinsiy shilqimlik;
4. Institutsional muhitda zo'ravonlik;
5. Ayol jinsiy a'zolarini kesish ya'ni kastratsiya qilish;
6. Majburiy nikohlar;
7. Mojaro va mojarodan keyingi vaziyatlarda zo'ravonlik;
8. Namus nomidan qotilliklar;

Farzandlik bo'lishni tanlash erkinligini hurmat qilmaslik²⁰, singari turlarini keltirib o'tadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning barchasi, oilada, jamiyatda va davlatda yuzaga kelayotgan gender tenglik bilan bog'liq aspektiv regulyatorda vujudga kelayotgan muammolardi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Mavzuni o'rganish davomida quyidagi xulosaga kelindi:

birinchidan, gender tengligi siyosiy mafkuralar va jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib, turli davlatlarda ushbu masala bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xususan, global miqyosda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan xalqaro tashkilotlar va qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lsa-da, bu jarayon turli madaniy, diniy va siyosiy omillarga bog'liq holda farqlanadi;

ikkinchidan, statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender tengligi g'oyasi qadimiy davrlardan buyon mavjud bo'lib, Platon, Aristotel, Plutarx, Abu Nasr Forobi va Ibn Sino kabi mutafakkirlar tomonidan turlicha yoritilgan. G'arb mamlakatlarida gender tengligi huquqiy jihatdan kafolatlangan bo'lsa, Sharq jamiyatlarida u milliy mentalitet va an'analar asosida shakllangan. O'zbekistonda ham gender tengligi bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, bu yo'nalishda qator qonunlar va strategiyalar qabul qilingan;

uchinchidan, gender tenglikka oid mafkuralarning jamiyatga ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud. Bir tomonidan, gender tenglik g'oyalari ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning

²⁰ Hagemann-White, Carol (February 2014). "Analytical study of the results of the 4th round of monitoring the implementation of Recommendation Rec(2002)5 on the protection of women against violence in Council of Europe member states". Council of Europe Equality Division. pp. 7, 8, 11. Archived from the original on 3 August 2020. Retrieved 5 April 2020.

jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlash va zo'ravonlikka qarshi kurashish imkonini beradi. Boshqa tomondan, ayrim ekstremal mafkuralar, jumladan, feminismning radikal shakllari yoki gender chegaralarini butunlay yo'q qilishga qaratilgan harakatlar jamiyatda ma'naviy va ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin;

to'rtinchidan, gender tengligi bilan bog'liq muammolar turli ijtimoiy va siyosiy regulyatorlarda aks etmoqda. Ayrim davlatlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik qonunlar bilan mustahkamlangan bo'lsa-da, ularning amalda qo'llanishida muayyan muammolar mavjud. Ayniqsa, gender tengligi bilan bog'liq muammolar ayollarga nisbatan zo'ravonlikning turli shakllarida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2007-yil. 160.
2. Danielle B. Goldberg, equal representation of women through the lens of leadership and organizational culture (2015), <http://www.unwomen.org/-/media/headquarters/attachments/sections/library/publications/> (Bu yerda shu narsa ta'kidlanadiki,"Faqat barcha darajadagi lavozimlarda ayollarning teng vakilligi ta'mnlansagina, gender tengligi tashkilot madaniyatiga to'liq singdirilgan va ayollarning teng ishtiroki isbotlangan bo'lishi mumkin").
3. Fred Halliday Gender and IR: Progress, Backlash, and Prospect. Millennium: Journal of International Studies. Volume 27. Issue.4. [https://doi.org/10.1177/03058298980270041101]
4. Gender Equality, what does it mean ? – Egalité Femmes/Hommes". gender-equality.essec.edu. Archived from the original on 2023-03-27. Retrieved 2022-10-[https://en.wikipedia.org/wiki/Gender_equality]
5. Hagemann-White, Carol (February 2014). "Analytical study of the results of the 4th round of monitoring the implementation of Recommendation Rec(2002)5 on the protection of women against violence in Council of Europe member states". Council of Europe Equality Division. pp. 7, 8, 11. Archived from the original on 3 August 2020. Retrieved 5 April 2020.
6. Radjapova Natalya Bazarovna. "Yangi O'zbekistonda demokratik o'zgarishlar davridagi gender tenglik: nazariya va amaliyot" mavzusidagi 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss...avto.ref. –Samarqand.: SamDU. 2023-yil.
7. The charter of the united nations: a commentary, supra note 12, at 426. [https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text]
8. Urazalieva Gulshada Bekpo'latovna esa, "Oila institutini mustahkamlashda gender tengligikning etnofunksional jihatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). mavzusidagi 09.00.04 –

JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS

Volume 1, May, 2025

<https://spaceknowladge.com>

Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss...avto.ref. –Toshkent.: O'zMU. 2024-yil.

9. U.N. Charter arts. 55-56. [<https://legal.un.org/repertory/art55.shtml>]
10. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli Qonuni. [<https://lex.uz/docs/-4494849>]
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yildagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" gi 297-IV-sonli qarori. [<https://lex.uz/docs/-5466673>]
12. Аристотель. Политика // Аристотель. Сочинения: В 4 т. –М.: «Мысль», 1983. Т. 4. – С. 376–644. Перевод с древнегреч. С.Жебелева.
13. Афлотун. Давлат. Таржимон. Урфон Отажон. –Т.: Янги аср авлоди нашриёти. 2024-йил. 512-бет.
14. Плутарх. Сайланма. Таржимонлар: Зохир Аълам ва Урфон Отажон. –Т.: Янги аср авлоди нашриёти. 2020-йил. 240-бет.
15. <https://www.healthline.com/health/different-genders>
16. <https://en.wikipedia.org/wiki/File:MURDER-SCALE-4-2019>
17. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.
18. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliquulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO 'YICHA* 32.10 (2023).
19. Xoliquulov, M. Q. O. G. L. (2024). MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 384-388.
20. Xoliquulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.
21. O'G'Li, Xoliquulov Muhammad Qaxor, and G. G'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." A. NAVOIYNING AR." *BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI.*" *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4 (2024): 24-28.